

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN TEMIR YO'L BEKATLARI VA UZELLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Temir yo'l bekatlari va uzellari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Temir yo'l bekatlari va uzellari

1. Temir yo'l tarmog'i, bekatlar va uzellarning umumiy tuzilishi hamda ularning temir yo'l transportidagi o'rnini tushunish;
2. Temir yo'llarni loyihalash va tuzilish asoslarini bilish, yo'lning ostki va ustki qismlarini farqlash;
3. Temir yo'l stansiyalarining turlari, vazifalari va texnologik jarayonlarini tushunish;
4. Ajratish punktlari, razyezdlar, quvib o'tish punktlari va ularning texnik chizmalarini o'rganish;
5. Temir yo'l uzellari tizimi, ularning tarmoqdagi joylashuvi va rivojlanish tamoyillarini bilish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Temir yo‘l tarmog‘i, bekatlar va uzellarning umumiy tuzilishi hamda ularning temir yo‘l transportidagi o‘rnini tushunish	Temir yo‘l tarmog‘i qismlarini ajratish; bekat va uzellar o‘rtasidagi farqni aniqlash; ularning harakat jarayonidagi vazifasini tahlil qiladi; transport tizimidagi o‘zaro bog‘liqlikni izohlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	42,5 %	17 ta
2	Temir yo‘llarni loyihalash va tuzilish asoslarini bilish, yo‘lning ostki va ustki qismlarini farqlash	Yo‘lning ostki va ustki tuzilishini aniqlaydi; yer polotnosi va rels tuzilmasining o‘zaro bog‘liqligini tushunadi; loyihalashda texnik me‘yorlarni qo‘llaydi; misollar asosida texnik yechimlarni tahlil qilish ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	20 %	8 ta
3	Temir yo‘l stansiyalarining turlari, vazifalari va texnologik jarayonlarini tushunish	Stansiya turlarini ajratish (oralik, uchastka, saralash, yuk, yo‘lovchi); ularning ishlash tamoyillarini taqqoslay oladi; har bir stansiyaning funksional qurilmasini tahlil qila oladi; texnologik jarayonlarni ketma-ket izohlash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	15 %	6 ta
4	Ajratish punktlari, razyezdlar, quvib o‘tish punktlari va ularning texnik chizmalarini o‘rganish	Ajratish punktlarining tuzilishini chizmalar asosida ko‘rsatadi; razyezd va quvib o‘tish punktlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qiladi; namunaviy chizmalarni o‘qish va ularni izohlaydi; texnik talablarga asoslanib loyihaviy yechim taklif qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	15 %	6 ta
5	Temir yo‘l uzellari tizimi, ularning tarmoqdagi joylashuvi va rivojlanish tamoyillarini bilish	Temir yo‘l uzellarining turlari va tuzilishini aniqlaydi; transport oqimiga ko‘ra ularning joylashuvini tahlil qila oladi; uzellarni rivojlantirish omillarini izohlay oladi; integratsiyalashgan transport tizimi haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	7,5 %	3 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. A.Shorustamov., R.Abdullaev. Temir yo‘l bekatlari va tugunlari. Tashkent, 2007-y.
2. O.Turdimatov., N.Ibragimov. Yuk va yo‘lovchilarni tashishni tashkil qilish. Tashkent, 2007-y.
3. M.Rasulov., G.Mirzaeva. Temir yo‘l transportida harakatni tashkil qilish va boshqarish. Tashkent, 2007-y.
4. S.Xusanov., A.SHorustamov. Temir yo‘llar umumiy kursi. Tashkent, 2007-y.
5. D.Samikova., M.Baxtiyorova. “Temir yo‘l bekatlari va tugunlari” fanidan kurs ishini bajarish uchun Uslubiy ko‘rsatma Tashkent, 2023 y.
6. Строительно-технические нормы. Железные дороги колеи 1520 мм. СТН Ц-01-95. М.: Транспорт, 1995.
7. Правила и технические нормы проектирования станций и узлов на железных дорогах колеи 1520 мм. М.: «Техинформ», 2001
8. Железнодорожные станции и узлы: Учебник для вузов ж.-д. транс./В.Г. Шубко, Н.В. Правдин, Е.В. Архангельский, В.Я. Болотный, В.А. Вакуленко, В.А. Персианов; под ред. В.Г. Шубко и Н.В. Правдина. – М.: УМК МПС России, 2002.
9. Проектирование железнодорожных станций и узлов: Справочное и методическое руководство/Под ред. А.М. Козлова, К.Г. Гусевой. – М.: Транспорт, 1981.
10. Масштабное проектирование путевого развития железнодорожных станций: Методические указания для курсового проектирования/ Сост. Ю.И. Ефименко, В.С. Суходоев. – Л.: ЛИИЖТ, 1987.
11. Определение ориентировочной стоимости строительства железнодорожных станций и узлов по укрупненным показателю: Методические указания/Сост. С.И. Логинов, Ю.И. Ефименко. – Л.: ЛИИЖТ, 1990
12. Ефименко Ю.И. и др. Станции железных дорог с обращением грузовых поездов повышенных веса и длины: Учеб. пособие/Ю.И. Ефименко, В.С.Суходоев, П.К. Рыбин, Г.С. Томилина. – СПб.: ПГУПС, 2000.
13. Расчет числа путей на станциях (с использованием вероятностно-статистических методов): Методические указания/Сост. П.К. Рыбин и В.И. Смирнов. – СПб.: ПГУПС, 2003.